

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIY TARAQIYOT VA KAMBAG'ALLIKNI
QISQARTIRISH VAZIRLIGI



**SO'NGGI YILLARDA O'ZBEKİSTONNING JAHON BANKI "BİZNES
YURİTİSH OSONLIGI" INDEKSİDAGI NATIJALARINI YAXSHİLASH
YO'LIDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR**

Toshkent
2021 YIL

So'nggi yillarda O'zbekistonning Jahon banki “Biznes yuritish osonligi” indeksidagi natijalarini yaxshilash yo'lida amalga oshirilgan ishlar

Ushbu indeks Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasi tomonidan 2003-yildan buyon yuritib kelinadi va 190 ta mamlakatlardagi biznes yuritish uchun yaratilgan huquqiy va amaliy muhitni baholagan holda, har yili “Biznes yuritish” yillik **hisobotida** mamlakatlarning egallagan o'rni aks ettiriladi.

Barcha yillik hisobotlardagi ko'rsatkichlar **bir yil avvalgi** holatdan (2-may o'tgan yil – 1-may joriy yil) kelib chiqib hisoblanadi (*faqatgina Soliq to'lovi indikatorida 2 ta kalendar yil oldingi holat o'rganiladi*).

“Biznes yuritish” indeksi tarkibiy indikatorlarini baholash xususiyatlariga ko'ra, shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin:

- **Vaqt, tartibot va xarajat indikatorlari** – Korxonani ro'yxatdan o'tkazish, Qurilish uchun ruxsatnomalar olish, Elektr ta'minoti tizimiga ularish, Mulkni ro'yxatdan o'tkazish, Soliqlar to'lovi, Xalqaro savdo;

- **Qonunchilik indikatorlari** – Kredit olish, Minoritar investorlarni himoya qilish, Kontraktlar ijrosini ta'minlash, To'lovga qobiliyatsizlikni hal etish.


“Biznes yuritish” indeksi ishtirokchi davlatning **bitta asosiy biznes shahrini** tanlab oladi va o'rganadi (mamlakatda aholi 100 milliondan kam bo'lsa), O'zbekistonda – **Toshkent shahri** hisoblanadi. Reyting hisoboti asosan **so'rovnama** kurinishidagi **ma'lumotlarga** (“soft data”) **asoslanadi**.

Jahon banki ekspertlari mamlakatlarda amalga oshirilgan islohotlarni baholashda **2 ta asosiy faktorga de jure (qonunchilikda aks etganlik)** hamda **de facto** ga (**amaliyotda joriy etganlik**) asoslanadi hamda **islohotni inobatga olishda de facto** ga **ustunlik beradi** (agarda islohot amaliyotda 50 foizdan ko'proq holatda qo'llanilayotgan bo'lsa, tan olinadi).

“Biznes yuritish” indeksi umumiyligi **12 ta indikatorni** o'z ichiga olib, shundan **2 ta** indikator – Mehnat bozorini tartibga solish va Davlat xaridlari bo'yicha natijalar mamlakatlarning reyting o'rinalarini aniqlashda inobatga olinmaydi.

O'zbekiston “Biznes yuritish” indeksidagi **natijalari xronologiyasiga** qaraydigan bo'lsak, bunda **dastlab 2006 yilda 138-o'rinni** egallagan bo'lsa, **2012 yilda** keskin pasaygan holda **166-o'rinni** qayd etgan hamda **2016 yilda** o'z reyting o'rnnini **87-o'ringacha** ko'tarishga erishgan va oxirgi **“Biznes yuritish-2020”** yillik hisobotiga ko'ra **190 mamlakat** ichida **69-o'rinni** egallab turibdi.

“Biznes yuritish” indeksi tadbirkorlik faoliyatining boshlang'ich nuqtasi – uni ro'yxatdan o'tkazish jarayonidan tortib, faoliyatini tugatgunigacha bo'lgan **hayotiy siklini qamrab oladi**.



“Biznes yuritish” indeksi natijalarini yaxshilash choralari

O'z navbatida, “Biznes yuritish” xalqaro reytingining tadbirkorlik muhitini yaxshilashdagi muhim o'rnnini (benchmark) anglagan holda bирgina ushbu indeksdagi O'zbekistonning o'rnnini ko'tarish maqsadida **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 3 ta qarori** (13.07.2018 y. PQ-3852-son, 05.02.2019 y. PQ-4160-son, 20.11.2019 y. PQ-4525-son) hamda tegishli “Yo'l xarita”lari tasdiqlandi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqorida keltirilgan qarorlari hamda boshqa tegishli hujjatlarida belgilanganlarni amalga oshirish natijalari:

Mamlakatimizda so'nggi yillarda **davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizimi yaratildi**, shu jumladan tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan – korxonani davlat ro'yxatidan o'tkazish, elektr tizimi tarmog'iga ulanish, mulkni ro'yxatdan o'tkazish tartibotlarini davlat xizmatlari orqali amalga oshirish imkoniyati yaratildi.

2017-yilda faqatgina tadbirkorlarga **170 ming**dan ortiq davlat xizmatlari ko'rsatilgan bo'lsa, **2020-yil** davomida jismoniy va yuridik shaxslarga **8 mlndan** ortiq **davlat xizmatlari ko'rsatildi** (*hozirga qadar aholiga qariyb 30 milliondan ortiq davlat xizmatlari ko'rsatildi*).

Tadbirkorlik subyektlari hamda aholi fikrini o'rganish amaliyoti doimiy ravishda yo'lga qo'yilib, ularning xohish-istiklarini inobatga olgan holda ko'rsatilayotgan xizmatlar soni tobora ortib bormoqda.

Masalan, **2018-yilgacha** bo'lgan davrda davlat xizmat markazlari orqali tadbirkorlik sub'ektlariga faqat **37 ta tur**dagi davlat xizmatlari ko'rsatilgan bo'lsa, **bugungi kunda** ushbu xizmatlar soni **157 ta**ga yetkazildi.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi **har bir tuman yoki shaharda 205 ta Davlat xizmat ko'rsatish markazlari** hamda **121 ta filial** faoliyati yo'lga qo'yildi.

2017-2020-yillarda indeksning indikatorlari kesimida

Korxonalarni davlat ro'yxatidan o'tkazishda davlat xizmatlarini joriy etilishi natijasida mos ravishda **2017-2020-yillar** mobaynida talab etiladigan tartibotlar **soni 4 ta**dan **3 tagacha** (yangi korxona nomini zaxiraga olish tartiboti bekor qilindi), sarf qilinadigan **vaqt 5,5 kundan** **3 kungacha qisqardi** hamda tadbirkorlarning **xarajatlari 3,2 foizdan** (aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad ulushi) **2,2 foizgacha kamaydi**.

Shu bilan birga, amaliyotda korxonani ro'yxatdan o'tkazish **real vaqt rejimida, lekin yarim soatdan oshmagan muddatda** hal etish uchun sharoitlar mavjud.

Buning natijasida, Juhon bankingining "Biznes yuritish" indeksi natijalariga ko'ra, O'zbekiston korxonani davlat ro'yxatidan o'tkazishning soddaligi bo'yicha dunyodagi **190 ta mamlakat** orasida **8-o'rinni (2017-yilga nisbatan +17 pog'onaga o'sdi)** egalladi.

Davlat xizmatlari orqali yaratilgan mavjud qulayliklar sabab, yangi tashkil etilayotgan tadbirkorlik sub'ektlari sonida ham o'sish tendensiyasi kuzatilmogda: 2017 y. – 38 289, 2018 y. – 49 056, 2019 y.– 93 091, 2020 y. – 93 425.

Elektr tizimi ta'minotiga ularish sohasida davlat xizmatlari joriy etilishi hamda qonunchilikdagi ortiqcha talablar bekor qilinishi natijasida mos ravishda 2017-2020-yillar mobaynida talab etiladigan **tartibotlar soni 7 ta**dan **4 tagacha** (xususiy firma tomonidan tashqi ularish loyihasini olish, hokimiyatdan qazish ishlariga ruxsat olish, hisoblagichni muhrlash tartibotlari) hamda tadbirkorlarning xarajatlari **1 233 foizdan** (aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad ulushi) **441,2 foizgacha kamaydi**.

Buning natijasida, Juhon bankingining "**Biznes yuritish**" indeksi natijalariga ko'ra, O'zbekiston korxonani elektr tizimi tarmog'iga ularishning soddaligi bo'yicha dunyodagi 190 ta mamlakat orasida **36-o'rinni (2017-yilga nisbatan +47 pog'onaga o'sdi)** egalladi.

Ushbu ijobiy natijaga quyidagi amalga oshirilgan islohotlarni sabab qilib keltirish mumkin:

- elektr tizimiga ularishda davlat xizmatlari ko'rsatishning takomillashganligi;

- mas'ul idora va tashkilotlar tomonidan beriladigan hujjatlarning soni qisqartirilgani va tartibotlar osonlashtirilgani hamda o'rtasida axborot almashinuvni yaxshilanganligi;

- elektr tizimi tarmog'i infratuzilmalarini modernizatsiya qilinganligi.

*Rekonstruksiya va modernizatsiya qilish dasturi bo'yicha so'nggi 4 yil mobaynida jami **25,7 ming km** elektr uzatish tarmoqlari*

va **8 981 ta transformator** punktlarida rekonstruksiya va yangi **qurilish ishlari** bajarildi. Mukammal ta'mirlash dasturi doirasida yiliga o'rtacha **20,0 ming km** ortiq elektr uzatish tarmoqlari va **7,0 ming**dan ortiq **transformator punktlari** mukammal ta'mirlandi. Shu bilan birga yuqori kuchlanish tarmoqlarda 1155,5 km elektr uzatish tarmoqlari qurildi va podstansiyalarda modernizatsiya va rekonstruksiya qilish evaziga 4020,9 MVA qo'shimcha quvvat zaxirasi yaratildi.

Minoritar investorlarni himoya qilish kuchaytirish, korxonalarda korporativ boshqaruvin tamoyillarini joriy qilish, ma'lumotlari ochiqligini ta'minlash yo'nalishida ham tegishli qonun hujjatlarini takomillashtirish orqali sezilarli islohotlar amalga oshirildi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatları" va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonunlariga xalqaro tajribadan kelib chiqib kiritilgan quyidagi o'zgartish va qo'shimchalarni keltirish mumkin:

- tegishli ma'lumotlarni oshkor qilishga talablarni belgilash orqali korporativ shaffoflik kuchaytirildi;
- korxonalarda egalik va nazorat tuzilmalari yanada aniqlashtirildi;
- asosiy korporativ qarorlarni qabul qilishda aksiyadorlarning roli kuchaytirildi;
- Kuzatuv kengashi tarkibiga mustaqil a'zolarni kiritish amaliyoti joriy etildi;
- Kuzatuv kengashi a'zolaridan tarkib topgan Audit qo'mitasini tashkil etish talabi joriy etildi.

Yuqorida keltirilgan islohotlar natijasida "Biznes yuritish" indeksida O'zbekiston **minoritar investorlar himoyasining kuchliligi** bo'yicha dunyodagi 190 ta mamlakat orasida **37-o'rinni (2017-yilga nisbatan +33 pog'onaga o'sdi)** egalladi.

Soliqlar to'lovi ma'murchilagini soddalashtirish, tadbirkorlar tomonidan ortiqcha hisobotlarni tayyorlashni bekor qilish, biznes uchun soliq yukini kamaytirish maqsadida so'nggi yillarda sezilarli islohotlar amalga oshirildi.

Xususan, soliq hisobotlarini elektron topshirish imkoniyati yaratilishi, infratuzilmani rivojlantirish solig'i bekor qilinishi **soliq to'lovlar sonining 46 ta dan (2017) 9 tagacha (2020) kamayishiga** olib keldi, soliq stavkalarining kamaytirilishi hamda ayrim turdag'i soliq to'lovlarining birlashtirib yuborilishi soliq yukini **38,1 foizdan (2017) 31,6 foizga (2020) kamayishini ta'minladi** hamda hisobotlarni tayyorlash, topshirish va **soliq to'lovlarining amalga oshirishga** ketadigan **vaqt ni 192,5 soatdan 181 soatgacha qisqartirdi**.

Umuman olganda, amalga oshirilgan islohotlar “Biznes yuritish” indeksining soliqlarni to'lash amaliyotida ham O'zbekiston natijalarini yaxshilanishiga asosiy omil sifatida e'tirof etilgani holda, soliq ma'murchiligining soddaligi bo'yicha dunyodagi 190 ta mamlakat orasida **69-o'rinni** (2017-yilga nisbatan **+69 pog'onaga o'sdi**) egalladi.

Xalqaro savdoni amalga oshirish tartibotlarini soddalashtirish va sohaga ilg'or xorijiy amaliyotni va bojxona boshqaruvining innovatsion usullarini joriy etish, davlat bojxona xizmati samaradorligini oshirish bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirildi, xususan:

- “**Xavfni boshqarish**” avtomatlashtirilgan axborot tizimining amaliyotga joriy etilishi bo'ldi. Natijada tovarlar va transport vositalarini **100 foiz** bojxona nazoratidan o'tkazishdek samarasiz usuldan voz kechildi;

*Ma'lumot uchun: bugungi kunda ushbu axborot tizimining joriy etilishi bilan **76,3 foizdan ortiq** yuklar soddalashtirilgan tartibda rasmiylashtirildi. **29 foiz** deklaratsiya “**yashil**”, **47,3 foiz** - “**sariq**”, **23,7 foiz** - esa “**qizil**” yo'laklar orqali bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazildi. Ya'ni, atigi **24 foiz** yuklar tekshiruvdan o'tkazildi. “Eksport” rejimida bu ko'rsatkich **16 foizdan** ortmaydi. Ya'ni, 2020-yilning o'tgan davrida **159 406 partiya** yuklar bojxona ko'rigidan o'tkazilgan bo'lsa, 2018-yilda bu ko'rsatkich **417 142 tani** tashkil etgan edi. Bojxona ekspertizalari 2020-yilning o'tgan davrida **3 ming**dan ortiq yuklarga qo'llanilgan bo'lsa, 2018-yilda bu ko'rsatkich **25 ming**dan ortiq edi.*

Mazkur tizim **tadbirkorlarda halollik va qonunga itoatkorlikka intilishini rag'batlantirib**, joriy etilgan dastlabki yilda **700** ga yaqin tashkilotlar halol deb baholangan bo'lsa, bugunga kelib ular soni **1800** dan ortdi;

- bojxona rasmiylashtiruvini soddalashtirish va tezlashtirish-nazorat punktlarida bojxona tartibotlaridan o'tish vaqt qisqartirildi;

*Bojxona rasmiylashtiruv vaqt eksportda **3 barobarga**, importda **2 barobarga** qisqardi. Ko'riklar soni **1,9 barobarga** kamaygan bo'lsada, ularning samaradorligi **1,5 barobarga** oshdi.*

- bojxona va boshqa vakolatli organlar tomonidan talab etiladigan ortiqcha hujjat turlari bekor qilindi;

- bojxona yuk deklaratsiyalarini **avtomatik ro'yxatga olish** va **avtomatik taqsimlash** joriy etildi.

*Jarayonga ilgari **2-3 soat** vaqt ketgan, bir nechta xizmat kitoblari yuritilgan edi, hozir **1-2 daqiqa sarf etilmoqda**, eng asosiy korruption holatlarni oldini olishga katta qadam bo'ldi;*

- “Raqamli bojxona” doirasida axborot tizimlari **66 taga** va interaktiv xizmatlar **30 taga** yetkazilib, tadbirdorlik subyektlari va fuqarolarga sifatli va tezkor xizmatlar ko'rsatib kelinmoqda. 2020-yil davomida **13 ta axborot tizimi** va **13 ta interaktiv xizmatlar**, 2021-yilning o'tgan davrida **12 ta axborot tizimi** va **3 ta interaktiv xizmatlar** ishlab chiqilib, amaliyotda **samarali foydalanilmoqda**.

- “**Yagona darcha**” tizimi orqali **12 ta** organning **60 ta** ruxsat berish tusidagi hujjatlar berish tartibi joriy qilindi hamda **1 ta** organning **1 ta** ruxsat berish tusidagi hujjatini elektron berish ishlari tugatilmoqda.

Tizimda 40 052 ta TIF qatnashchilari ro'yxatdan o'tgan bo'lib, vakolatli idoralar tomonidan 856 385 ta ruxsatnomalar hujjatlari elektron shaklda rasmiylashtirildi. Natijada sertifikatlar va ruxsat berish tusiga ega bo'lgan hujjatlar 100% elektron ko'rinishga o'tkazilib, ushbu hujjatlarni taqdim etish muddatları o'rtacha 7 kundan 2 kungacha, tadbirdorlik subyektlarning xarajatlari esa o'rtacha 270 AQSH dollaridan 57 AQSH dollargacha qisqartirildi.

Yuqorida sanab o'tilgan islohotlar, o'z navbatida, “Biznes yuritish” indeksining Xalqaro savdo amaliyotida O'zbekistonning ko'rsatkichlarining ijobiy tomonga o'zgarishini ta'minlamoqda, jumladan **eksportga sarflanadigan vaqt**: hujjatlarni tayyorlash uchun **174 soat**dan (2017) **96 soat**gacha (2020); bojxona rasmiylashtirushi uchun **112 soat**dan (2017) **32 soat**gacha (2020), importga sarflanadigan vaqt: hujjatlarni tayyorlash uchun **174 soat**dan (2017) **150 soat**gacha (2020), **import xarajatlari**: hujjatlarni tayyorlash uchun **292 dollar**dan (2017) **242 dollar**gacha (2020) **kamayishiga erishilgan**.

“Biznes yuritish” xalqaro reyting metodologiyasiga ko'ra xalqaro savdo indikatori bo'yicha har bir mamlakatda eksportda eng yirik hajmdagi ko'rsatkichiga qarab ishlab chiqarish mahsulot turi tanlanadi – O'zbekiston uchun paxta va paxta mahsulotlari hamda importda barcha davlatlar uchun bir xil – avtomobil ehtiyoj qismi kabi mahsulot guruhlari namunasi sifatida o'rganib baholanadi.

Kontraktlar ijrosini ta'minlash indikatorida natijalarni yaxshilash maqsadida so'nggi yillarda bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi hamda sohada bir qator avtomatlashtirilgan tizimlar joriy etildi.

Bunda, xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan nizolarni hal qilishning sudgacha bo'lgan mexanizmi **Mediatsiyadan foydalanishni rag'batlantirish bo'yicha mexanizm qonunchilikda belgilash yo'li bilan mustahkamlanishi**, sudyalar o'rtasida ishlarni avtomatik tarzda taqsimlash, sud bosqichlari uchun aniq vaqt chegarasini belgilash, sudyalar hamda advokatlar foydalanishi uchun **ishlarni boshqarishning elektron tizimi** joriy etilganligi shular jumlasidandir.

Avvalgi “Biznes yuritish – 2020” yillik hisoboti natijalariga ko'ra, O'zbekiston kontraktlar ijrosini ta'minlash indikatorida **41-o'rindan 22-o'ringa** ko'tarilgan holda birdaniga **19 pog'onaga o'z o'rnini yaxshilagan**.

Jahon bankining **Biznes yuritish** xalqaro reytingida so'nggi 5 yil ichida O'zbekiston o'z o'rinni **18 ta pog'onaga** yaxshilanib **190 ta** mamlakat orasida **69-o'rinni** egalladi. So'nggi “Biznes yuritish - 2020” hisoboti natijalariga ko'ra O'zbekiston dunyoning **Top-20** islohotchi mamlakat safiga kirib “Korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish” indikatori bo'yicha **8-o'rinni** egallab **Top-10** mamlakatlar qatoriga kirdi.

Biznes yuritish xalqaro reytingining so'nggi **4 ta hisobotida** Jahon bankining ekspertlari tomonidan tegishli yo'naliishlarda jami **15 ta yirik islohotlar** tan olinganligini e'tirof etilgan.

Shu bilan birga, biznes muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish yo'lida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yilning 20 noyabrida PQ-4525-son qarorida nazarda tutilgan chora-tadbirlar ijrosini ta'minlash natijasida **10 tadan** ortiq normativ-huquqiy hujjatlar **qabul qilindi** hamda **tashkiliy chora-tadbirlar** amalga oshirildi.

Kelgusida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar

1) O'zbekiston Respublikasida bankrotlik yoqasiga kelib qolgan **korxonalarni sog'iomlashtirishga rag'bat berish** mexanizmlarini joriy qilish, ularning **moliyaviy resurslar jalb etish** imkoniyatlarini kengaytirishni nazarda tutgan **“To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida”**gi Qonun qabul qilinadi;

2) Qurilishga ruxsatnomalar olishda birlamchi ruxsat berish hujjatlari, **loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish**, ularni **ekspertizadan o'tkazishdan** tortib ob'ektlarni foydalanishga topshirishgacha bo'lgan barcha qurilish jarayonlarini nazarda tutuvchi **Yagona ma'muriy qurilish reglamenti** ishlab chiqiladi;

3) Ko'chmas mulk obyektlarining **ommaviy baholash metodologiyasi** ishlab chiqiladi;

4) Sud boshqaruvchilari faoliyatini tubdan takomillashtirishni nazarda tutgan **Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi** ishlab chiqiladi;

5) **Sud xabarnomalari** va **chaqiruvlarini** elektron tarzda amalga oshirish imkoniyati kengaytiriladi;

6) Davlat bojxona qo'mitasining **xavflarni boshqarish tizimini temir yo'l** va **avia** chegara bojxona postlarida joriy etiladi;

7) Elektron tijorat bilan shug'ullanadigan tadbirkorlik subyektlariga **soliq solishning soddalashtirilgan tizimi joriy etiladi**;


8) **Milliy geoaxborot tizimida** Toshkent shahridagi ko'chmas mult obyektlari bo'yicha ma'lumotlarni joylashtirish ishlari yakunlanadi;

9) Tadbirkorlik subyektlari tomonidan elektr tizimi tarmog'iga ulanishda talab etiladigan **taxminiy xarajat** va **vaqt** sarfini aniqlash bo'yicha "Kalkulator"dan foydalanish imkoniyati yaratiladi;

10) Tadbirkorlik subyektlarini elektr tarmoqlariga ulash ishlarini amalga oshirishning **umumiyligi** va **soddalashtirilgan** tartibda hamda **xarajatlarni moliyalashtirish** imkoniyatlarini yaratgan holda elektr tarmoqlariga ulanish muddatlari va **sarf-xarajatlari optimallashtiriladi**.

***Xalqaro reytinglar
va tadbirkorlik muhitini yaxshilash departamenti***

O‘zbekiston Respublikasining “Biznes yuritish 2017 va 2020” hisobotlaridagi reyting indikatorlari o‘rni



Doing Business reytingida O'zbekistonning o'rni

| Indikatorlar | Sub-Indikatorlar | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | Hisobotning yili | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 |
|------------------------------------|---|------|-------|-------|-------|------------------------------------|------|------|------|------|
| | | | | | | O'rin | 87 | 74 | 76 | 69 |
| Korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish | Jarayonlar (miqdori) | 4 | 3 | 3 | 3 | Korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish | 25 | 11 | 12 | 8 |
| | Vaqt sarfi (kun) | 5,5 | 5 | 4 | 3 | | | | | |
| | Qiymati (aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromaddan % da) | 3,2 | 3,1 | 3,1 | 2,2 | | | | | |
| | Ustav kapitalning minimal miqdori (jon boshiga to'g'ri keluvchi daromadga nisbatan %da) | 0 | 0 | 0 | 0 | | | | | |
| Qurilish uchun ruxsatnomalar olish | Jarayonlar (miqdori) | 23 | 17 | 17 | 17 | Qurilish uchun ruxsatnomalar olish | 147 | 135 | 134 | 132 |
| | Vaqt sarfi (kun) | 176 | 246 | 246 | 246 | | | | | |
| | Qiymati (tovar ombori qiymatidan % da) | 3,8 | 3,4 | 3,3 | 3 | | | | | |
| | Qurilishda sifat nazorati indeksi (0-15 ball) | 11 | 11 | 11 | 11 | | | | | |
| Elektr ta'minoti tizimiga ularish | Jarayonlar (miqdori) | 7 | 4 | 4 | 4 | Elektr ta'minoti tizimiga ularish | 83 | 77 | 35 | 36 |
| | Vaqt sarfi (kun) | 89 | 88 | 88 | 88 | | | | | |
| | Qiymati (aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromaddan % da) | 1233 | 883,1 | 705,2 | 441,2 | | | | | |
| | Elektr ta'minotini ishonchliligi va tariflarning oshkoraliqi indeksi (0-8 ball) | 8 | 8 | 8 | 8 | | | | | |
| Mulkni ro'yxatdan o'tkazish | Jarayonlar (miqdori) | 9 | 9 | 9 | 9 | Mulkni ro'yxatdan o'tkazish | 75 | 73 | 71 | 72 |
| | Vaqt sarfi (kun) | 46 | 46 | 46 | 43 | | | | | |
| | Qiymati (ko'chmas mulkning qiymatidan % da) | 1,3 | 1,2 | 1,1 | 0,7 | | | | | |
| | Yer resurslarini boshqarish tizimining sifati indeksi (0-30 ball) | 18,5 | 18,5 | 18,5 | 19 | | | | | |
| Kredit olish | Kredit operatsiyalarini himoya qilish darajasi indeksi (0-12 ball) | 6 | 6 | 6 | 6 | Kredit olish | 44 | 55 | 60 | 67 |
| | Kredit ma'lumotlari indeksi (0-8 ball) | 7 | 7 | 7 | 7 | | | | | |
| | Kredit reestri qamrovi (aholining katta yoshdagilardan % da) | 27,8 | 40,1 | 42,7 | 47,8 | | | | | |
| | Kredit byurosi qamrovi (aholining katta yoshdagilardan % da) | 0 | 0 | 0 | 0 | | | | | |

Doing Business reytingida O'zbekistonning o'rni (davomi)

| Indikatorlar | Sub-Indikatorlar | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | Hisobotning yili | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 |
|---|---|-------|-------|-------|------|---|------|------|------|------|
| | | | | | | O'rinni | 87 | 74 | 76 | 69 |
| Minoritar investorlarni himoya qilish | Ma'lumotni oshkor qilish darajasi indeksi (0-10 ball) | 8 | 8 | 8 | 8 | Minoritar investorlarni himoya qilish | 70 | 62 | 64 | 37 |
| | Direktorning javobgarlik indeksi (0-10 ball) | 3 | 3 | 3 | 3 | | | | | |
| | Rahbarlarning huquqiy javobgarlik indeksi (0-10 ball) | 7 | 7 | 7 | 7 | | | | | |
| | Aksiyadorlar huquqlari indeksi (0-6 ball) | 6 | 6 | 6 | 4 | | | | | |
| | Boshqaruv tuzilmasini rivojlantirish indeksi (0-7 ball) | 5 | 4 | 5 | 7 | | | | | |
| | Korporativ shaffoflik indeksi (0-7 ball) | 5 | 7 | 7 | 6 | | | | | |
| Soliqlar to'lovi | To'lovlar (1 yilda miqdori) | 46 | 10 | 10 | 9 | Soliqlar to'lovi | 138 | 78 | 64 | 69 |
| | Vaqt sarfi (yil davomida soat) | 192,5 | 181 | 181 | 181 | | | | | |
| | Soliq va badallarning umumiyligi stavkasi (foydadan % da) | 38,1 | 38,3 | 32,1 | 31,6 | | | | | |
| | Hisobot topshirish va soliq to'langandan keyingi jarayonlar indeksi (0-100 ball) | 47,02 | 48,39 | 48,17 | 48,2 | | | | | |
| Xalqaro savdo | Eksportga sarflangan vaqt: chegara va bojxona nazorati (soatda) | 112 | 112 | 112 | 32 | Xalqaro savdo | 165 | 168 | 165 | 152 |
| | Eksport qiymati: chegara va bojxona nazorati (AQSh dollarda) | 278 | 278 | 96 | 278 | | | | | |
| | Eksportga sarflangan vaqt: hujjatlarni rasmiylashtirish (soatda) | 174 | 174 | 174 | 96 | | | | | |
| | Eksport qiymati: hujjatlarni rasmiylashtirish (AQSh dollarda) | 292 | 292 | 292 | 292 | | | | | |
| | Importga sarflangan vaqt: chegara va bojxona nazorati (soatda) | 111 | 111 | 111 | 111 | | | | | |
| | Import qiymati: chegara va bojxona nazorati (AQSh dollarda) | 278 | 278 | 278 | 278 | | | | | |
| | Importga sarflangan vaqt: hujjatlarni rasmiylashtirish (soatda) | 174 | 174 | 174 | 150 | | | | | |
| | Import qiymati: hujjatlarni rasmiylashtirish (AQSh dollarda) | 292 | 292 | 292 | 242 | | | | | |
| Kontraktlar ijrosini ta'minlash | Vaqt sarfi (kun) | 225 | 225 | 225 | 225 | Kontraktlar ijrosini ta'minlash | 38 | 39 | 41 | 22 |
| | Qiymati (da'vo qiymatidan % da) | 20,5 | 20,5 | 20,5 | 20,5 | | | | | |
| | Sud jarayoni tizimining sifat indeksi (0-18 ball) | 6 | 6 | 6 | 8,5 | | | | | |
| To'lovga qobiliyatsizlikni hal qilish | Vositalarning qaytarilish koeffitsiyenti (bir dollar uchun sent) | 39,5 | 37,2 | 37,6 | 34,4 | To'lovga qobiliyatsizlikni hal qilish | 77 | 87 | 91 | 100 |
| | Vaqt sarfi (yil) | 2 | 2 | 2 | 2 | | | | | |
| | Qiymati (ko'chmas mulk obyekti bahosidan % da) | 10 | 10 | 10 | 10 | | | | | |
| | Jarayonning yakuniy natijasi (0 agar korxona aktivlari qismlarga bo'linib sotilsa 0 ball va agar korxona o'z faoliyatini davom ettirsa 1 ball) | 0 | 0 | 0 | 0 | | | | | |
| | Normativ-huquqiy baza samaradorligi indeksi (0-16 ball) | 8 | 8 | 8 | 8 | | | | | |